

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»

KAFEDRASI

ABDIRAZZAQOVA ZEBINISO JAHONGIR QIZINING

“UMUMTA'LIM MAKTABLARINING TASVIRIY SAN'AT
MASHG'ULOTLARIDA, TANIQLI RASSOMLARNING HAYOTI VA IJODINI
O'RGANISH”

mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Nav.P.K. o'qituvchisi:

R.M.Chuliyev

Navoiy 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TASVIRIY SAN`AT HAQIDA TUSHUNCHALAR	7
1.1. Tasviriyl san`at tur va janrlari.....	7
1.2. Tasviriyl san'at o'qitish metodikasidan amaliyl mashg'ulotlarning maqsadi va mazmuni.....	24
II BOB. TANIQLI RASSOMLARNING HAYOTI VA IJODINI	31
O`RGANISH HAQIDAGI UMUMIY MA`LUMOT.....	
2.1. O`zbek xalq rassomlarining, bizga qoldirgan boy me`roslaridan namunalar.....	31
2.2. Tasviriyl sana`at darslarida, mashhur jahon rassomlari haqida va ular ishlaridan namunalar ko`rsatish.....	46
Umumiy xulosalar	54
Atamalarining izohli lug`ati.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	59

KIRISH.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi, bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Shunday ekan bugungi kun talabi, har tomonlama mukammal ilm egalarini jamiyatimizga yetkazib berishimizni, davrning o'zi talab qilmoqda.

Prezidentimiz yoshlarni har tomonlama qo'llab quvatlashlari, yoshlar uchun dunyo eshiklari ochilganligidan dalolatdir. Bu imkoniyatlardan biz yoshlar, unimli fodalanishimiz ham qarz, ham farzdir. Buning yana bir isboti o'laroq 2014-yil "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinish, davlat dasturi ishlab chiqilganligidir. Yoshlarimizning kelajagini o'ylab, ularning kamida to'rtta (ingliz, fransuz, rus) tilni mukammal bilishlari, axborot telekamunikatsiyalardan unimli foydalana olishlarini ta'kidlab o'tishlari bejiz emas.

Maktabdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar AT yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy ob'ektlarni va ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron

jadvallardan foydalanishni o'rganadi. O'quvchilar axborot yig'ishning yangi usullarini, ulardan foydalanishni o'rganishadi, ularning dunyoqarashi kengayadi. Darslarda AT ning ishlatilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, o'quvchilarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter AT bilan birgalikda ta'lim sohasida, o'quvchilarning o'qish va ijodkorligida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ilk bor ta'lim AT shaxsning bo'lajak kasbining asosiy instrumenti bo'ladigan vaziyat vujudga keladi. Ta'lim haqiqattan ham hayotimizga butun hayot faoliyati davomida kirib kelaveradi.

Axborot telekommunikatsion tarmoqlarning rivoji esa sayyoramizning turli nuqtalarida saqlanayotgan katta hajmdagi ma'lumotga erishish imkonini yaratadi va shu bilan birga distansion ta'lim tizimlari rivojiga turtki beradi. **XXI** asr yuqori kompyuter texnologiyalari asridir. Bugungi kunning zamonaviy o'quvchisi elektron madaniyat dunyosida yashayapti. Axborot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining vazifasi o'zgarmoqda – u axborot oqimi koordinatori bo'lishi kerak. Taraqqiyot bilan bir xil qadam tashlayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi bugun o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyordir.

O'qituvchi dars o'tar ekan u darsning ixtiyoriy bosqichini yangi texnik vositalarni joriy etish orqali jonlantirish mumkin. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish o'qituvchiga darslarda o'quv-biluv faoliyatining turli shakllaridan foydalanishga, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga va aniq maqsadga yo'naltirishga imkon beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv axborotidan foydalanishga imkoniyat beruvchi, axborotni qidirib topish, yig'ish va axborot manbasi bilan ishlash, shu jumladan internet tarmog'idagi manbalar, shuningdek axborotni saqlash va yetkazib berish vositasi sifatida qarash mumkin. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv materialini sifatini oshirishga va ta'lim samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma'rifat va madaniyatni o'rgatish,

ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Aristoteldan keyin, Sharq va G'arbda "Muallimi soniy", ya'ni "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Yaxshi xulqlar", "Baxt-saodatga erishish haqida" kabi asarlarida sardor, yetakchiga xos xislatlar haqida yozadi. Forobiy bunday fazilatlar deganda, "Bilimdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqiy ma'naviy komillikka intilish, adolatli bo'lish" kabi xislatlarni tushungan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" deb alohida ta'kidlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi–

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda, tasviriy san'at darslarida bolalarni tabiatni idrok etishga o'rgatish haqida, umumiy tushuncha berishni, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishni bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

–bu taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishda maktab o'quvchilari uchun oddiy usullardan foydalanib o'tish orqali bilim berish.

– taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishni, innovatsion texnologiya usullaridan o'rinni foydalana olish orqali bilim berish.

Malakaviy bitiruv ishituzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 59 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida "tasviriy san'at" fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida rassomlar mavzusini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Tadqiqot ishimizni yozishda quyidagi:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san`atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

TASVIRIY SAN`AT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.

I.1. Tasviriy san`at tur va janrlari.

Tasviriy san`at taraqqiyoti, uning nazariy asoslarini shakllanishi jarayoni ibtidoiy jamoa davridan boshlab nihoyatda uzoq yo`lni bosib o`tdi. Ushbu soha taraqqiyoti ayrim davlatlar bilan chegaralanib qolmasdan, yer sharining barcha qit`alarida, barcha davrlarda izchil rivojlanib bordi. Bu borada san`atshunos va tarixchilar tomonidan nihoyatda ulkan va boy meros to`plangan.

Ma`lumki, san`atning turlari nihoyatda ko`p bo`lib, ularning eng asosiylari sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, me`morchilik, amaliy bezak, sirk, televideniya, tasviriy san`at kabilarni alohida e`tirof etish mumkin.

"Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so`zidan olingan bo`lib, unda turli material, xususan, bo`yoq, tosh, gips, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarning va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi¹.

Tasviriy san`at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o`rgatishga xizmat qiladi. Tasviriy san`atning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo`layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko`rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar tabiat hodisalari va kishilarning o`zaro munosabatlari, faoliyatlariga, san`at ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaganlar.

Ayni paytda tasviriy san`at asarlari kishilarning his tuyg`ulariga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ham egadar. Kishilar tasviriy san`at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go`zallikni ko`rish orqali o`z hayotlarida ana shunday go`zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko`rib esa ularga o`xshashga intiladilar. San`at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko`rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo`lishga intiladilar.

¹ N.D Abdullayeva San`at tarixi T: "O`zbekiston" 2006. 104 b.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, urf-odatlar bilan tanishadilar, tasavvurga ega bo'ladilar (1-rasm). Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar shunday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalariing kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar.



1-rasm

Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarni ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar, kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini bilim va tajribasini kengaytiradi.

O'zbekiston hududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b. joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning

turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marinavistik).

Tasviriy san'atning uch turi mavjud:

1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik. 3. Grafika.

Rangtasvir deb - tekis yuzada rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangana kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari yog'och, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir shaklida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo'lib, ular moybo'yoq, temlerali, freskali, mozaikali, akvarel, guashli, nastelli bo'lishi mumkin.

Rangtasvir quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir 3. Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri. 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri. Bular - *freska, mozaika, vitraj*.



Dastgohli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan Sur'atlari tushuniladi (2-rasm). Dastgohli Rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda qo'shimcha moyli va akvarel bo'yoqlar qo'llaniladi

2-rasm

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya'ni katta o'lchovdagi rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar qo'rg'oncha binolarning ichki-yu tashqi ko'rinishlari, tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarinin freska, mozaika, vitraj kabi turlari mavjud. Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shunipdek, yupqa matolar yordamida ishlanadi.

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna bo'laklari, tonshar, materiallardan bino devorlariga yoki tekis matteriallar ustiga ishlanadi

Vitraj esa binolarniig deraza, eshik, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi.

Minatyura (mo'jaz) rangtasviri deyilganda: bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rang tasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. Rangtasvirning bu turi Sharq, shu qatori Movarounahrda katta shuhrat qozongan (3-rasm). Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yil ommalashib bormoqda.



3-rasm

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki-yu tashqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ rangtasviri: spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan ayrim, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar (4-rasm) sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklarini unda ifodalash voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi².



Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rangtasvir ishlari nazarda tutadi.

Haykaltaroshlik ham xuddi

4-rasm

rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykal taroshlikda tosh, metal, ganch, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi.

Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi. Haykaltaroshlik asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi to'liq yumaloq haykallar, ikkinchisi esa relefli - bo'rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'rish kerak bo'ladi. Relif haykallar tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi. Relifli haykallarning ham ikki xili bo'ladi:

1. Barelefda tasvir qalinligining yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi.
2. Gorelefda esa bu qalinlikning yarmidan ko'prog'i bo'rtib turadi.

² N.D Abdullayeva San'at tarixi T: "O'zbekiston" 2006. 118 b.

Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. So'nggi yillarda asalari mumi (vosk)dan haykal ishlash texnikasi qo'llanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan kengroq VII asrdan buyon foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo'nalishlarda bo'ladi.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir obektlari haqiqiy ko'rinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan (5-rasm), ya'ni shakl, o'lchov, perspektiva va boshqa jihatlardan ma'lum darajada o'zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallardagi ob'ektlar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa

jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.



5-rasm

Haykaltaroshlar o'z faoliyat ila ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, bolta, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, chuqur shakl beruvchi

yoysimon turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'g'riburchak, trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llaniladi. SHuni ham qayd qilish lozimki, haykaltaroshlikda qo'llaniladigan uskanalar turli o'lchovda, tuzilishda va shaklda bo'ladi.

Haykaltaroshlik dastgohli, monumental, yodgorlik (memorial) dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud³.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib qo'langanidan kelib chiqqan (6-rasm). Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy joylarning ichki qismi, shuningdek, istirohat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallariga mo'ljallab yaratiladi.

³ N. Abdullaev. San'at tarixi. 1 – tom. –T.: “O'qituvchi”. 1986. 98 b

Dastgohli haykallarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri. ularda gasvirlanayotgai ob'ektlarning haqiqiy, ya'ni hayotdagi o'lchamda yoki undan kichik bo'lishidadir.

Dastgohli haykallarning asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsollik (harakat bosh qismi elkasi tasvirlanadi, bunday asar byust deyshadi. Ularda odam bo'yi-basti bilan tasvirlansa, bu fiturali portret deb yuritiladi. SHuningdek, yarim furali portretlar ham bo'ladi.

Mahobatli haykaltaroshlik iborasi monumental, yirik. mahobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va ko'chalarga xalqommasi uchun mo'ljallab o'rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashhur shaxslarniig nomlarini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Monumental haykallar uzoqdan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog'liq



6-rasm

holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning alohida yo'nalishparidan biri - bu monumental-dekorativ haykaltaroshlikdir. Bu yo'nalishdagi asarlar ham monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq ommasini uchun mo'ljallangan bo'lsada, ko'proq bezak vazifasini bajaradi. Mahobatli – dekorativ haykallar ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi.

Ularda odam, hayvon, baliq va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o'lchamda bo'lganliti sababli, ularni bemalol uzoqdan ko'rish mumkin. Mahobatli asarlarning umumiy o'lchami, hajmi, proporsiyalari tevarakatrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli-dekorativ haykallar garchi mahobatli bo'lsa-da, ular ham to'liq hajmli va Relieflilik qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik — haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek, binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qo'llaniladi. Ular o'lcham jihatdan kichik bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchamdagi o'yinchoq haykallar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni ba'zan mayda plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X.Rahimova, U.Jo'raqulov, A.Muxtorov kabi xalq kulol ustalari samarali mehnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagi metall, marmar, yogoch, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham rangtasvir tarzda ishlatilishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezashadi.

Grafika. "Grafika" — lotincha so'z bo'lib, "yozaman, chizaman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. "Gravyura" fransuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini



7-rasm

bildiradi (7-rasm). Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, linoleum, yut kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog'ochdagisini ksilografika, lenoliumdagisini-linogravyura, tosh orqali ta'sirlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.

Grafika asarlarning qo'llash sohalari nihoyatda kengdir. Xususan,

estam, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) etiketka va o'rama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yo'l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning blankalari shular jumlasidandir⁴.


Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanib, XV—XVII asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sultgon Muhammad, Qosim Achi, kabilar shuxrat qozongan bo'lsalar, XX asrda O'zbekistovda I.Ikromov, V.Kedrin, O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhamedov, I.Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu — uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q rangli tasvir ishtirok

etadi. Ba'zan grafik tasvirlar har xil rangli bo'ladi (8-rasm).

Ayrim grafika asarlari katta o'lchamda, va ko'p nusxada tayyorlanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi.

Grafika san'atida estami ham katta o'rin egallaydi. Estami yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblari bilan qattiq materiallar (tosh, yog'och, linoleum) o'yin orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi. Estamp uchun shu narsa xa-



8-rasm

rakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqanidan

so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi. Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu -illyustratsiyalardir. Qadim-qadimdan tasviriy san'at bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj topgan. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning

⁴ N. Abdullaev. San'at tarixi. 1 – tom. –T.: “O'qituvchi”. 1986.114 b

deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dasgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Ilyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam beradi, ikkinchidan adabiy obrazlar-timsollarni aniq va jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi (8-rasm).

Rassom biror bir adabiy asarga illyustratsiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni ham to'plashi, o'sha davr odamlarining ma'daniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo'ladi.

O'zbek xalq ertagining bir turi hisoblanadi. "Karnay ko'targan bola" asosida unda hayotdagi ayrim salbiy ishlangan illyustratsiya hodisa va ko'rinyshlar, shaxslar hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi

Grafikaning reklama, afisha, etiketika, o'rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.

O'tgan asring 60 yillarida o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atning badiiy an'alarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratgandilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. Iskandar Ikromov tomonidan A.Navoiyning "Lirika" nomli to'rt jildlik she'rlar to'plamiga ishlangan rasmlar rassom ijodining gultoji hisoblanadi⁵.

Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy kotkrerspsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada e'tirof etilib, yuksak taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va betakror bo'lib chiqqan. Undagi tovus tasviri asarga mos lirik xususiyat kasb etadi. Muqova yuzasidaga grafik belgilarining bir tekisligi, tovus tasvirinipg nafis ranglar bilan ifodalanishi, qushning orqa tomonidagi havorang buvqtar bilan berilgan gul shalida

⁵. Oydinov N. Ajdodlarimiz san'ati va etiqodi. T. 1992.54 b


shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi uning yuqori badiiy saviyasini ta'minlagan.

Tasviriy san'atda: manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy, animal, (ya'ni hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengazmavislik, nyu, inter'er janrlari mavjud. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa "Portret", tabiat ko'rinishlari tasvirlansa "Manzara", turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa "Maishiy" janrga xos bo'ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlasa tarixiy janr, harizonlarni tasvirlash animal janr deb yuritiladi. "Animal" janri lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib hayvon ma'nosini anglatadi. "Vatan" janri esa fransuzcha "batay" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jang, "nyu" janri fransuzcha yalang'och ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning o'zida ikki va undan ortiq janrga mansub bo'lishi mumkin. Masalan, norarst va nyu, deshiznavislik, interkr, manzara va hokazolar.

Har bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan, manzara janrini tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial-sanoat binolari ko'rinshtsh manzarasi janriga yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo'lish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan, manzara janridan dengiziavislik, tarixiy janrdan batal, manzara janridan interer ajralib chiqqan.(9-rasm)

Manzara janri. Tasviriy sa'natda tabiat, shahar, industrial-sanoat, interer



9-rasm

ko'rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga ta'luqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, xayolan ifodalangai bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin.

Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarinish keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misoliida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshida yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mo'staqil ravishda Xitoyda VI asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Evropa tarafda Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chizish va havo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. birinchisi mustaqil manzara bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning (10-rasm) orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi ta'sirlanshi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayva-zovski, N.Klaxaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi. Interer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi.



10-rasm

Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko'p uchraydi. Qadimga misrliklar va xitoyliklar o'z g'oyalarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Joggo, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar⁶.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengyunavislik janridir. Unda asosan (11-rasm) dengiz ko'rinishlari va undaga hodyasalar tasvirlanadi. Dengaz

⁶ N. Oyidinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.T: "O'qituvchi" 1997. 91 b.

janrining shakllanishida I.Ayvachovskining xizmatlari katta bo'lgan. Bu ulug' rassom



11-rasm

o'zining umrini faqat dengaz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib o'rinni egallaydi.



12-rasm

ahamiyat kasb etadi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara asosan uning Relif turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha

Natyurmort janri. "Natyur- mort" soʻzi fransuzcha boʻlib "jonsiz narsalar (natura)" maʼnosini anglatadi. Bu janrdan asosan (12-rasm) rangtasvir va grafika asarlarida keng qoʻllaniladi. Tasviriylar sanʼatining bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, quyonlar, baliqlar, oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi.

Natyurmort mustaqil janr sifatida XV-XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo boʻlgan.

Natyurmortning ikki turi mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort boʻlsa, ikkinchisi yordamchi yoki toʻldiruvchi natyurmortdir. Natyurmort birinchi turda faqat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turdagi natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qoʻshimcha detal sifatida ishlangan boʻladi. Natyurmortning xarakterli xususiyatining hayotdan, goʻzallikdan zavqlanishga yoʻnaltirilganidadir. Bu vazifa meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli koʻringan va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uygʻotish orqali bajaradi.

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida maʼlumotlar berishi ham oʻta muhimdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil turini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni goʻzatlikka oshno etib ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tasviridan tashkil topgan boʻlsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi. Ikkinchisida natyurmort oʻzi haqida emas, balki u bilan bogʻliq shaxs uning egasi haqida maʼlumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasada, biroq uning didi, ijtimoiy mavqei ifodalanadi. Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J.Sharden, F.Snayders, I.Mashkov, P.Konchalovskiy, L.Salimjonovlar katta shuhrat qozonganlar.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, (13-rasm). mehnati, kundalik hayoti bilan bogʻliq boʻlib, ularda koʻproq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarining balki oʻtmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng maʼlumot beradi Tasviriylar sanʼatda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo boʻlgan. Bu janr oʻz mazmuni jihatdan ancha

murakkab bo‘lib, natyurmort, manzara, animal va boshqa janrlar bilan bog‘liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko‘proq rangtasvirda, ba‘zan esa grafika va haykataroshlikda ham ishlatiladi.



13-rasam

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixda nihoyatda ko‘p bo‘lib, ulardan eng



14-rasm

mashhurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog‘omov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kentva boshqalarni tilga olib o‘tish mumkin.

Portret janri. "Portret" fransuzcha "portrait" so‘zidan olingan bo‘lib, kishilarning chexrasidagi xuddi o‘ziga o‘xshatib (14-rasm) tasvirlash ma’nosini bildiradi. Portretda kishilar yakka, ikki

kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlashi mumkin. Portretda odamlarning faqat bosh, ba‘dan ular beligacha yoki bo‘yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy

santatning uchala turida ham qo'llaniladi. Portret xarakteri jihatdan monumental, dastgohli, ishqiy, hajviy bo'ladi⁷.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili ham keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'ch aksiga qarab

yaratadi. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Klraxaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi.

Interer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z g'oyalarida interer ni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Joggo, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar. Yuqorida bajarilgan mashqlar, asosan, boshni rang tasviriga qaratilgan edi. Portret kompozitsiyasi, badiiy obraz, umuman ijodiy vazifalar to'g'risida so'z yuritmadik. Kompozitsiya darslarida bu mavzu muhim o`rin tutadi. Rangtasvir xususiyati ustida gap ketganda bu mavzuga qo'shimcha ijodiy portretning ba'zi bir talablari haqida fikr yuritsak.



15-rasm

Portretning to'g'ri topilgan yechimi uning plastik xarakteristikasi, ruhiy holati, psixologiyasini, shuningdek uning millatini ham aniq ochib beradi. Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Portretida eng muhimi uning ko'rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning (15-rasm) ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir.

⁷ N. Oyidinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.T: "O'qituvchi" 1997. 98 b.

Boshqa detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun, lablar uning xarakterini ifodalaydi. Portiretda qo'llar ham muhim ahamiyatga ega. Qo'llarga qarab odamning kasbi, xarakteri hatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin.



Bosh xarakteri uning burilib, egilib turishi yuz mimikasi gavdaning umumiy holati insonning xarakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassom ning muhim, asosiy vazifasidir. Xarakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasi - Leonardo da Vinchi. Jakonda, (Mona Liza portreti)ga mos bo lishi kerak. Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir

harakati, o'zini tutishi, voqealarga bo'lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to'laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo'r o'ziga xos xarakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas.

1.2. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har har bir inson uchun zarur bulgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va ko'nikmalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida hadda ziyod bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin.

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos,maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`,soya,rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya ) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvyrларini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish uni qadrlashga, sevishga o`rgatish.

2. Tasviriy san`at darslarining qo`shimcha vazifalari,ular; bo liqni, hayotni bilishga ko`maklashish; milliy g`urur va milliy istiqloл mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo`llash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materiallarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydali-dir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi: o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish: o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;

shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish: bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekrativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzaralarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltllab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholashn malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralar- ning, ya`ni “xush bichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarnibolarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirrab ko`rinishini ta`kidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarining shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifodalanaadi.

Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirleydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kom-

pazitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proportsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatidan o`ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qayisi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimada ekanligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z e`tiborini ularning tushinchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak-atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatga ishtiyoq his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san`atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlagan ilyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, hayvinlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma`lumki bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ege bo`ladilar.

Tasviriy san`atni o`qitish jarayonida, qo`yiladigan topshiriqlar o`quvchilarni birdan-bir va betakror o`z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo`llaydi. Bolalar o`quv topshiriqlarini echishda o`zlarini ijodkor bo`lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma`lum bo`lgan yo`ldan muammoni tez va oson hal qilib qo`yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali ular-

ning ijodkorlik va hayotlarini, me`yor va uyg`unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada, ma`lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko`p jihatdan mashunday kishilarga bog`liqdir. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko`zda tutilmagan har qanday vaziyatlardan muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar xalqimizni taraqqiyotini yanggi bosqichlarga ko`taradilar.

Ijodiy tafakkyr butunlay yangi g`oyalar va tasavvurlarni vujudsa keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o`ziga xoslikni ro`yobga chiqishiga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchunguna emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injinermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Tasviriy san`at o`quv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o`stirish, borliqni ko`ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma`lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig`ini ko`z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og`iz v.b. a`zolar orqali o`zlashtiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko`z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg`ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san`at shunoslik asoslari mashg`ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bundan darslarda o`quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go`zalligini kuzatadilar hamda ularni o`z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo`ladilar. Maslan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya`ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o`z e`tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirqda yaxshi saqlanib qolishga ta'sir ko'rsatadi. Shning uchun ham xotirani ayniqsa, ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifasalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompazitsiya, proportsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, xalqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligining shohidi bo'lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rango-rang go'zal manzaralarini, o'zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atining qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklahnib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning tasviriy san`at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq xolda kengaytirish va rivojlan tirishni taqozo etadi.

O`quvchi maktab binosiga, uning yonidagi uchastkaga, o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni his etishi, umuman maktabning qiyofasi undan o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab, chiroyli qilib bezatilgan va aloxida e'tibor bilan qarab turiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lakcha va gulzorlar, maktab hovlisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat ko`rsatgan o`g`lonlarimiz kabi temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan panolar va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hamma-sida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi, turli xildagi go`zal partretlar ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Maktab binosining kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, prezident burchagi, o`quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo`lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari qo`yilgan stend tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

II BOB. TANIQLI RASSOMLARNING HAYOTI VA IJODINI O`RGANISH HAQIDAGI UMUMIY MA`LUMOT.

2.1. O`zbek xalq rassomlarining, bizga qoldirgan boy me`roslaridan namunalar.

Pavel Petrovich Benkov


Pavel Petrovich Benkov 1879-yilda Qozon shaxrida tavvalud topgan. 1949-yilda Samarqandda vafot etgan. U O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi (1939-yil). Dastlab P.Benkov qozon badiiy bilm yurtiga o`qigan. Keyinchalik Peterburg badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulian-ning xysusiy akademiyasida ta`lim olgan. Italiya, Ispaniya, Fransiya safar qigan. 1913-1928 yillar davomida “Kovalevskiy bolalarining portreti”, “Rassom ayol portreti” asarlarini yaratgan. Qozon katta teatrida bir qator spektakllarga deko-ratsiyalar ishlagan. 1929 yilda Samarqandga kelib, 1930 yildan oshlab shahardagi badiiy bilim yurtiga o`qituvchilik qilgan.



Volgada. 1914y.

Uning o`tgan asrning 30- yillari o`rtala- rida yaratgan asarlarida, O`zbekistonning qadimiy shaharlari qiyofasi, o`ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o`zbek millatining betakror madaniyati, kishilari obrazi yorqin bo`yoqlarda gavdalandiriladi.


Uning “Buxoro timi” (1929 y.), “Xivalik qiz”(1931y), “Buxorodagi osh- xona” (1929y), “Eski Buxoro” (1931y), “Minorai Kalon” (1930 y.), “Dugonalar”, (1940y.), “Qahramonning onasi” (1942y.), “Jangchiga” (1945y.), “Dugorchi qiz” (1947y.), “Ko`cha”, (1943y.), “Registondagi choyxona”, (1944y.) nomliiy asarlari, O`zbekistonning mumtoz me`moriy obidalari va manzalariga bag`ishlangan. Pavel Benkov Samarqandning ko`cha va bog`lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o`ziga xos go`zalligini yorqin va hayoti ifodalovchi o`nlab asarlar yaratgan. O`zbekistonda tasviriy san`atning shakillanishida, milliy kadrlar yetishtirishga uning xizmatlari beqiyos bo`lgan.




N.O.Stepanovoy-Shevchenko. Portreti. 1915-1919 y.



Kechki Istambul.1914y



Ko`cha yozuvchisi. 1929y.



Shmulevich. Portreti.




Qariya portreti. 1925-1926y.

O`rol Tansiqboyev

O`rol Tansiqboyev mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda tavallud topib, 1974 yilda vafot etgan. O`.Tansiqboyev yoshligidan san`atga qiziqib, Toshkentdagi badiiy muzey qo`shidagi to`garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni rassom, I.Repinning shogirdi, N.Rozanovdan oldi. To`garakka qatnab yurgan yillari- dayoq u ko`plab kompazitsiyalar ishladi.

Uning ilk ishlaridan biri 1927 yilda yaratilgan “Toshkentboyev partreti” edi. Studiyada tasviriy san`at borasida olgan bilimlaridan ko`ngli to`lmagan O`.Tansiqboyev Rossiyaning Penza shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga o`qishga kiradi.




U yerda I.Repinning shogirdlari ,I.Goryushkin-Sorokupudov va N.Petrovdan san`at sirlarini o`rganadi. Ayniqsa, unga Rossiya mashhur rassomlarining Penza muzeyidagi tasviriy san`at asarlari katta ta`sir ko`rsatdi. Ularni o`rganish va ayrimlaridan nusxalar ko`cherish O`.Tansiqboyev uchun katta maktab vazifasini o`tadi.



O'rol Tansiqboyevning mustaqqil ijodi, O'zbekistonda milliy san'atning tiklanish davriga to'g'ri keldi. U o'z ijodining dastlabki yilida yillarida anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, biroq uning asosiy ijodi 1940 yidan so'ng boshlanadi. U O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida ikkinchi jahon urushi bo'lgan joylarga borib, u yerlardan katta taasurotlar bilan qaytdi. Natijada "Ozod etigan yerlarda", "Mal'unning yo'li", "Partizan ayol", "Havo jangi" kabi bir qator asarlar yaratdi. 1943 yilda unga O'zbekistonga ximat ko'rsatgan sanat arbobi unvoni berildi.

Urushdan keyingi yillarda O'rol Tansiqboyev katta o'lchamdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga "Sholi hosilini yig'ib olish", "Bahor", "Paxtani sug'orish", "Jonajon o'lka", "Issiqko'l oqshomi", "Tog'da" kabilarni kiritish mumkin.



Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlaridan yana biri “Oʻzbekistonda mart” deb ataladi. Rassomning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi soʻqmoq, daryo qirgʻogʻining baland-pastliklari, qiygʻos gullagan daraxtlar, oʻzaniga sigʻmay oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan togʻlar, quyosh nuriga hamohang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bagʻishlaydi.

Oʻrol Tansiqboyev oʻzining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurilayotgan kanallar, suv omborlari, elektrostansiyalari, neft nqiduruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u “Togda bahor”, “Qayroqqum GESi tongi”, “Angren vodiysi” kabi betakror asarlar yaratdi.



Rassomga shuhrat keltirgan asarlaridan biri, “Qayroqqum GESi tongi” deb ataladi. Bu asarda, yuqoridan turib kuzatilgan elektrostansiyasi va suv ombori lirik kayfiyatda tasvirlangan bo`lib, undagi qurilishlar tabiat bilan uyg`unlashib ketgan. Suvrat markazidagi erta tongda zangiri tusga kirgan elektrostansiyasi to`g`oni cheti ko`rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyiladi.

Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag`ishlovchi mo`jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo`y cho`zgan mussaffo dengiz qa`riga ko`milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan his etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki dengiz, osmon va kengliklarning bepoyonligi, koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o`ziga tortadi. Manzarada suv, cho`l, tog` va fazo yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli, asar nihoyatda salobatli ko`rinadi.

O`rol Tansiqboyev ijodiy yo`nalishini belgilab beruvchi asarlardan yana biri “Tog`dagi qishloq oqshomi” manzarasidir.

Asar tik holdagi kompazitsiyadan iborat. Unda Respublikamizning tog`lik go`zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda uzoqlarda yastanib yotgan moviy tog`lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidan

oqib o'tgan soy, kishilar va bolalar tasviri ko'zga tashlanadi. Kishilar va bolalar tasviri manzaraga hamohang tarzda unga hayotiylik baxsh etadi.

Suratdan ko'rinib turibdiki, kech kirib, oqshom tushgan va tog' cho'qqilariyu, qoyali toshlarni tun o'z qa'riga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qo'ylarning ma'rashi, soyning shuvillashi, chigirtkalarining chirillashi eshitilayotdek tuyiladi. Kechki yog'du bag'rida, uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u yer, buyarlarda ko'zga tashlanadi. Kech kirib, viqorli tog'lar orqasiga quyosh berkingan, uning o'rniga oy chiqmoqda.

O'rol Tansiqboyevning diqqatga sazavor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan "Sirdaryo" nomli manzara bo'lib, u Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadi.

1960 yillarda rassom "Tog' yo'li", "Angren-Qo'qon yo'li", "Angren daryosi", "Chorvoq qurilishida" kabi bir-biridan jozibali asarlar yaratdi. Umrining oxirlarida yaratgan "Kuz tongi", "Mening qo'shig'im", "Chordaryo suv omborida" kabi asarlari esa rassom ijodining, cho'qqilari bo'lib qoldi.

O'rol Tansiqboyev ijodiga xos xususiyatlar ona-Vatanga muhabbat, uni ulug'lashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmon o'par tog'lar, uzoqlarga ketgan ilon izi yo'llar, moviy osmon, ko'k bilan tutashib ketadigan go'zal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, kishilar tasvirlari ham yorqin ranglarda ifodalanadi.

O'rol Tansiqboyev katta hayot yo'lini bosib o'tdi. U 1934 yillardayoq Moskva va Finlandiyada o'tkazilgan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasida o'z ishlari bilan qatnashdi. O'rol Tansiqboyev 1958 yida Bryusseldagi xalqaro ko'rgazmada "Qayroqqum GESi tongi" asari bilan, qatnashib xalqaro kumush medal bilan taqdirlandi.

Vatanimiz san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom hukumatimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston xalq rassomi, Rossiya Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zosi edi.

Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Moskvadagi Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari san`at muzeyi, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojigiston, Moldova, Litviya, O`zbekiston san`ati muzeylaridan o`rin olgan.

O`rol Tansiqboyev birinchilar qatori manzara janrida ijod qilib, san`atimiz tarixida o`chmas iz qoldirgan mussavirlardan edi. U o`z asarlarida O`zbekistonning go`zalligini, uning jozibasini kuyladi. O`rol Tansiqboyevning asarlari yana uzoq yillar bizni va kelajak avlodlarni ham Vatanga muhabbat, go`zallikdan zavqlanishga chorlab turishi shubhasizdir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova

Hozirgi zamon, O`zbekiston tasviriy san`atining manzara, portret, natyurmort va maishiy janrlarida barakali ijod qilayotgan, o`zbek rassomlaridan yana biri, Laylo Salimjonovadir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shahrida tug`ulgan. Layloning otasi huquqshunos, onasi uy bekasi edi. Ushbu oila 1941 yilda Toshkentga ko`chib keladi. Oilada san`atga dahldor kishi bo`lmasada, Laylo o`rta maktabning 8-sinfini tamomlab, o`zining qiziqishi tufayli P.P.Ben`kov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga o`qishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvaffaqiyatli bitirib, shu yilning o`zida teatr va rassomlik institutining tasviriy san`at fakultetiga hujjat topshiradi. Institutni 1963 yilda tamomlaydi. U yerda Laylo, N. Qo`ziboyev, T.Oganesov, P.Ahmedov kabi ustoz rassomlar qo`lida san`at sirlarini o`rganadi. Yosh rassomni marg`ilonlik kashtachi qizlarning betakror va ajoyib ishlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Shu boisdan u diplom ishi uchun “Marg`ilon kashtachilari” mavzusini tanlaydi.

“Saodat” jurnalining bosh muharriri shoira Zulfiya, Laylo Salimjonovani 1963 yilda, ya`ni u hali talabalik davridayoq mazkur jurnalga ishlashga taklif qilgan edi. Shu tariqa Laylo Abdubakirovna Salimjonova bu jurnalda 30 yil mobaynida bosh rassom bo`lib ishladi. Keyinchalik u “Guliston” jurnalida ham faoliyat ko`rsatdi. Bu yillar mobaynida iste`dodli rassom O`zbekiston rassomlar uyushmasining a`zosi bo`ldi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi unvoniga saza- vor bo`ldi.

Laylo Salimjonova o'tgan asrning 60-70 illaridagi ko'rgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Uning bu janrdagi "Jamila Jumaeva", "Bahri G'ulomova", "Zulfiya" kabi asarlari diqqatga sazovordir. Keyinchalik u "Halima Xudoyberdiyeva", "Onalik", "Yashnarxon portreti", "Singlim portreti", "Ma'mura Boboyeva", "To'quvchi qizlar", "Farida portreti", "Arxitektor M. Xudoynazarova", "Dilorom Qambarova", "Zamira Hidoyatova", "Hamro Rahimova" kabi yana o'nlab betakror ortretlarni yaratdi. Birgina "Hamro Rahimova" asarining yaratilishi tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvohi bo'lamiz. Rassomasar yaratishga material to'plash maqsadida xalq o'yinchoqlari ustasi Hamro Rahimovaning uylariga borib, ularning xonadonlarida bir necha kun mehmon bo'ladi. Laylo Salimjonovani betakror o'yinchoqlarning yaratilish bosqichlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Bu jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining kompozitsiya yechimini topadi. Laylo Salimjonova ustaning mehnat jarayonida xomak eskizlar ishlar ekan, ba'zida uni savollarga ko'mib tashlar edi. Shu tariq "Hamro Rahimova" suvrati yaratilgan. Qiziq tomoni shundai, bu asardagi turli yosgdagi bolakaylar tasviri umuman qaxramonga notanish va rassom tomonidan kiritilgan.

"Ustaning hovlisida bu quvnoq bolalarning ko'rmagan bo'lsam-da, o'zimda bolalar timsolini ham asarga kiritish istagi paydo bo'lgan", – deydi, asar muallifi.

Laylo Salimjonova tabiatni tasvirlashda ham o'z yo'nalishga ega. Bunga "Soy bo'yida", "Oq tosh", "Varrak", "Hovlida", "Qoratosh", "Tog'da kuz" kabi asarlarini kuzatish orqali yana bir bo'linma bo'lamiz. Ayniqsa, "Tog'da kuz" asari ham mazmun, ham kompozitsiya jihatidan chuqurroqdir. Asarda ilgari surilgan g'oya – kuz faslining go'zalligi, musaffollik, sokinlikni tarannum etishdan iboratdir. Savlatli tog'lar, barglari sarg'aygan bog'lar, qirg'og'I toshlar bilan o'ralgan zilol suvli soy va boshqako'plab manzara unsurlari, yuqori tasviriy mahorat bilan ishlangan.

Laylo Salimjonova gularni juda sevadi. Uning "Xrizontema natyurmorti", "Oq gular", "Moviy fondagi natyurmort", "Xrizontemalar" kabi asarlarini kuzatib, gullardagi go'zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

1991 yilda yaratilgan “Xrizontemalar” nomli natyurmortida rassom gullarining guldonda tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko`ringan stolning perespektiv holati orqali asar kompozitsiyasini yaxlit namoyon etadi. Laylo Salimjonova mo`yqalamiga mansub asarlar, Angliya, Iordaniya, Isroil, Hindiston kabi ko`plab davlatlargacha yetib borgan. Uning “Qora qahva” nomli natyurmorti esa, Angliyalik mashhur shaxsiy kolleksioner tomonidan sotib olingan.

Laylo Salimjonova yurtimiz rassomlarining keksa avlodiga bo`lishiga qaramay, hanuzgacha ijod bilan band. U o`z suhbatlarida Z. Inog`omov, M.Saidov asarlarini sevishini, jahon san`ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o`zgacha hurmat bilan qarashini e`tirof etadi.

Laylo Salimjonovanning ijodi oilasiga ham tasir qilgan. Buni rassomning ug`li Ahmad Boboyev ijodida yaqqol ko`rish mumkin. U kino sohasida rassom bo`lib ishlaydi. Qizi Lola Boboyeva ham onasi kasbini ezozlab, dezaynerlik san`atini egallagan. Uning ishlari AQSH hamda Parij ko`rgazmalarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan. Laylo Salimjonovanning turmush o`rtog`i Baxtiyor Boboyev ham mashhur o`zbek rassomlaridan biridir.

Malik Nabiye

Rangtasvirchi rassom, pedagog, O`zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O`zbekiston xalq rassomi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi Malik Nabiye 1916 yilda Toshkent shahrida tavallub topgan va 2008 yilda vofot etgan. Malik Nabiye tasviriy san`atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan o`rganadi, 1933 yilda ustozi maslahatiga ko`ra, rassomlik bilim yurtiga o`qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatib, shu yerda o`qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda esa Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti badiiy grafika fakultetini tugatadi. O`sha yillarda uning san`atiborasidagi mustaqil ijodiy faoliyatini boshlanadi. Rassom urishning og`ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shoirlar yozib, front ortidagi mehnatkashlarni sharaflash bilan g`alabani yaqinlashtirdi.

Rassom o`z faoliyati davomida hamisha tarixiy shaxslar portretlarini yaratishga, tarixiy voqealarni tasvirlashga intilar edi.



Tarixiy shaxslar timsolini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan, u o`zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar qiyofasini yuksak badiiy saviyada yarata oladi. Bu benazir asarlar ichida Amur Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Ar-Roziy, Al Xorazimiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning portretlari alohida o`rin tutadi.

Mazkur bebaho asardan biri 1962 yilda yaratilgan Zahiridin Muhamad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish uchun rassom ko`p yillar davomida ijodiy izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan- Andijon, Samarqand shaharlarida, shuningdek, Avg`oniston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqdi. Bobur haqida yaratilgan mo`jaz rangtasvir asarlarini har tomonlama batafsil o`rgandi.

Nihoyat rassomning ko`p yillik tinimsiz memehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti keng jamoatchilik tomonidan olqishlarga sazovor bo`ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to`lishi munosabati bilan 1963 yilda Beruniyning eng yaxshin portreti uchun e`lon qilingan tallovda Malik Nabiyevning ishi

birinchi mukofatni oldi. bu portret Yuneskoning “Kurer” jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko`pgina jurnal va gazetalarida ham chop etildi.

Malik Nabiyeu ijodida 1994 yilda yaratilgan “Amir Temur portreti” asosiy o`rinni egallaydi. Bu asarni yaratish istagi ijodkorda 1941 yilda Sohibqironning qabri ochilib uning bosh suyagi olingan bu asosda rus haykaltaroshi M. Gerasimov tomonidan Amir Temurning haykalini ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan.

Rassom Sohibqironning bosh suyagini muzeyda o`z ko`zi bilan ko`rib, uning portretini ishlashga kirishadi.

Amir Temurdek buyuk shaxsning portretini qanchalik masuliyatli va murakkab ekanligini his qilgan rassom bu ulug` va shatafli ishga ellik yildan ortiq vqt sarfladi. Bu davrda u Hindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning mzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan va bevosita Amir Tmur hayoti va faoliyati bilan bog`liq bo`lgan mo`jaz rangtasvir asarlarini, u haqda yaratilgan ko`plab adabiyotlarnim miridan-sirigacha puxta o`rgandi.


Oxiri oqibatda, davlat arbobi, xarbiy qo`mondon siymosini realistik tarzda zo`r mahorat bilan yaratishga muvaffaq bo`ldi. 1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amur Temur siymosi uchun e`lon qilingan Malik Nabiyeuving maskur portret bosh mukofotga sazovor bo`ldi.

Rassomnig tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo`lgan xalq qo`zg`olonlarining mohiyati ochib beriladi. Malik Nabiyeu avloddan-avladga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o`rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo`lgan noyob rassomlar toyifasiga kiradi. Uning anashunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnayga qarshi ozodlik kurashi haqidagi “Spitamen qo`zg`oloni” suvratdadir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga “Samarqandda hunarmandlar qo`zg`oloni”, “Jizzax qo`zg`oloni” kabi ishlarni ham kiritish mumkin.


Malik Nabiyeu nafaqat betakror rassom, balki shu bilan birga mohir pedagog, ustoz va yetuk murabbiy ham edi. U 1960 yildan boshlab uzoq yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy grafika fakultetida kafedra mudiri va prafessor sifatida faoliya ko`rsatgan.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o`qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining aksariyati alohida kitoblar shaklida chop etigan. Ijodkorning sermhsul ijodiyfaoliyati hukumatimiz tomonida munosib taqdirlanib, unga “Buyuk xizmatlari uhun” ordeni berilgan.

2.2. Tasviriy sana`at darslarida, mashhur rus rassomlari haqida va ular ishlaridan namunalar ko`rsatish




LEVITAN



LEVITAN

Manzara janri.




LEVITAN

Qish manzarasi.



LEVITAN

Ko'ldagi kuz.




Arest Adamovich Kiprenskiy


Avtoportret mo`yqalam bilan. 1804 yil



Ikki kishidan iborat Naturshiklar.1800 y



Tayoq ushlagan naturshik. 1800 y.



Toshga o`tirgan naturshik. 1800-05 y.



Yonboshlagan naturshik. 1802 y.

UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Yevropa bu borada dynuo sivilizatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari yetishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “Umumta’lim maktablarining tasviriy san’at mashg`ulotlarida, taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o`rganish” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim.

Bu ishim bilan men, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`uliyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir.

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

ATAMALARNING IZOHLI LUG`ATI

Avtoportret – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, rassomning o`zini tasvirlashiga aytiladi.

Axromatik rang – oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug`lik kuchlari bilan farqlanadi.

Asosiy rang – tabiatda mavjud bo`lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

Amaliy grafika – grafika san`atining turlaridan biri. Turli xildagi yorliqlar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.

Animalist – (lotin «animal» – hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.

Applikatsiya – bar xil rangli qog`oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog`ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.

Assimmetriya – nomutanosiblik, biror buyum qismlari, bo`laklarining ma`lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o`xshamasligi, munosib kelmasligi.

Afrodita – qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go`zallik ma`budasi.

Batalist – jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.

Venera – Yunon va Rum afsonalarida muhabbat va go`zallik ma`budasi.

Vitraj – (frans – deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ xarakterdagi naqsh yoki tasvir ishlash. Odatda, rom derazalariga shunday tasvirlar ishlanib, ular o`zida nur o`tkazishi hisobiga turli ko`rinishlar hosil qiladi.

Garmoniya – xarmoniya (grek) – bog`liq bo`lish, munosiblik, muvofiqlik, badiiy asar qismlarining mutanosibligi.

Grizayl – (frans. grizaille, griz – kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

Diptix – (grek, diptigos-ikki qatlangan) o`rta asrlar san`atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relef va rangtasvirdan tuzilgan asar.

Drapirovka – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.

Janr – (frans, tur. ko`rinish). Tasviriy san’atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o`zida aks ettiradigan san’at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko`rinishlari aks ettiriladi. Alohida yoki odamlar guruhini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyiladi. Meva, gul, uy buyumlari va shunga o`xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va h.k.

Interer – uying ichki ko`rinishini tasvirlanishi.

Iliq rang – olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg`ish, zarg`aldoq va qizil rang kabilar.

Illyustratsiya – kitob, gazeta-jurnal grafikasining ko`rinishlaridan biri bo`lib, matn yoki hikoya bilan bog`liq bo`lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko`rinishini o`zida aks ettiradigan rasmlardir.

Inkrustatsiya – (lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san’at asari yaratish.

Kapitel – (lotin-kalla, bosh) ustunning yuqori qismi bezagi.

Kompozitsiya – (lotin kompozitio tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g`oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

Kompanovka – chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qog`oz yuzasiga mos qilib joylashtirish.

Kolorit – yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.

Kontrast – qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o`zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, keskinroq, ko`rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko`rinadi va hokazo.

Kontur – tarx, tashqi ko`rinish. Narsaning qalamtasvirini ishlashda qo`llaniladigan zirh chiziq.

Kopirovka – naqshlarning, qalamtasvirini qog`oz va gazlamaga ko`chirishda ishlatiladigan qora, qizil, sariq, zangori tusdagi rangli qog`ozlar.

Lok – Moybo`yoqlarda ishlangan tasvirlar uchun alohida lok qo`llaniladi. Shuningdek, loklar aerazol bankachalarida chiqarilib, ular ko`mir, pastel, sangina, retush kabi tasviriyy vositalarda bajarilgan grafik ishlarning yuzasiga sepib mustahkamlanadi.

Lessirovka – rangtasvir texnikasi usullaridan biri. Qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

Mozaika – rang-barang shisha, toshchalar, yog`och, faner, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopishtirish yo`li bilan hosil qilingan rasm.

Molbert – qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo`llaniladigan moslama.

Mazok – surtma, mo`yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash, bunda asosan mo`yqalamning karton yoki matoda qoldirgan o`ziga xos izlari.

Nabroska – xomak ish, qoralama, o`ziga xos chiziq va chizqlar yordamida tez bajariladigan tarxli tasvir.

Natyurmort – (frans. jonsiz tabiat) tasviriyy san`at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy-ro`zg`or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.

Plakat – (lotin, e`lon, guvohnoma). Grafika san`atining turlaridan biri bo`lgan plakatta tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o`zining badiiy ifodasi orqali davrning eng muhim voqcalarini tomoshabinga yetkazadi, uni kurashga da`vat etadi, ogoxlantiradi, tushuntiradi.

Plener – ochiq kenglik.

Rangtasvir – devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari. Bu san`atda rang muhim o`rinni egallaydi va uning o`ziga xos xususiyatli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san`atida rang shunchaki yordamchi vosita vazifasini o`tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ifodali obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligini, hamda hajmini ko`rsatadi.

Reproduksiya – tasviriyy san`atga nisbatan olinadigan, haqiqiy badiiy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko`rinishi.

Restavratsiya – (lotin. tiklash) zarar ko`rgan tasviriy badiiy asarlarning umrini uzaytirish va ilmiy usullardan foydalanib, asl holiga qaytarish.

Retush – (frans. to`g`rilash) tasvirning aniqlangan kamchiliklarini to`g`rilash.

Ritm – yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dinamik qaytarilishi.

Syujet – (frans. buyum, narsa, harakat). Tasviriy san`atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi. Hayotiy voqea, lavha, harakat.

Siyoh qalam – kichik mo`yqalam bilan naqsh tarxini bo`yoqda chizib chiqish.

Sovuq ranglar – muz, qor, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko`kish yashil, to`q binafsha kabi ranglar.

**Tasviriy san`at** – odatda, mavjud borliqni ko`rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qog`oz yuzasida, devor sathida va h.k.) aks ettira oladigan san`atdir.

Tasviriy san`at tushunchasi keng ma`noga ega bo`lib, unga grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san`ati ham kiradi. Tasviriy san`atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va bir qator o`xshashliklari bor, lekin shu bilan birga, ulardan har birining o`ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o`rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab, bir qator tur va janrlarga bo`linadi.

Etyud – (fransuzcha «o`rganish») yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.

Etyudnik – etyud ishlashga moslashtirilgan ko`chma dastgoh.

**Qo`shimcha ranglar** – qizil, sariq va zangori bo`yoqlarning aralashuvidan hosil bo`ladigan omuhta ranglar.

Xolst – rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. G' O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
- 6 Shaxtaxtinskiy M. K voprosu izucheniya "Analitiki" Aristotelya. G' Ocherki istorii shkolo' i pedagogicheskoy mo'sli narodov s drevneyshix vremen do kontsa 18 v.- Moskva: MGU, 1995-S.-34-46.
- 7 Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. G'G' Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
- 8 Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
- 9 Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaG'G' Ma'rifat.-2004,- 21 fevral.
- 10 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 11 Raykov B. E. Slovesno'e formo' i metodo' obucheniya.-M.: Znanie,1997.- 282 s.
- 12 Pavlov I. P. Psixologiya vo'sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
- 13 Botir Boymetov Qalam tasvir "MUSIQA" nashriyot TOSHKENT-2006
- 14 B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi"Toshkent – O'qituvchi-1984.
- 15 B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
- 16 S. Abdiraulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 17 G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
- 18 L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 19 B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.

- 20 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 21 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 22 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-
“Fan”.2004.
- 23 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi.
Moskva.-1980.
- 24 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 25 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 26 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russkiy xudojniki – pedagogi. Moskva
,1991.
- 27 N.Rastovtsev. Akademicheskiy risunok.Moskva,1985.
- 28 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.